



UDK: 348.97:94(5)

Ne'matullo NASRULLAYEV,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti, t.f.d
E-mail: nematulloh77uz@mail.ru

T.f.n H.Lutfillayev taqrizi asosida

MO‘G‘ILLAR DAVRIDA FIQH: FATVO AMALIYOTI VA UNING TARIXIY BOSQICHLARI HAQIDA

Аннотация

Ushbu maqola Markaziy Osiyoda IX–XX asrlarda Hanafi fiqhining rivojlanishini, fatvo va fiqhiy risolalar tarixini o‘rganadi. Tadqiqot davomida Mo‘g‘ullar istilosi, Temuriylar va Shayboniylar davridagi fiqhiy faoliyat, fiqhiy manbalar va fatvo to‘plamlarining jamlanishi, usuli va ijtimoiy-siyosiy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, mintaqada boshqa fiqhiy mazhablarning tarqalishi va Hanafi fiqhining amaliy qo‘llanilishi ham ko‘rib chiqiladi. Maqola arab, fors va turkiy tillardagi manbalarni o‘zaro solishtirish orqali davrning ilmiy-landshaftini yoritadi.

Kalit so‘zlar: fiqh, davriy chegara, Movarounnahr, fiqhiy mazhablar, mo‘g‘illar bosqini, sharh, hoshiya, fatovo, Yaqin Sharq, Abduqodir al-Qurashiy, “Al-Javohirul-mudiya fi tabaqatul-hanafiya”.

FIQH IN THE MONGOL PERIOD: THE PRACTICE OF FATWAS AND THEIR HISTORICAL STAGES

Аннотация

This article examines the development of Hanafi fiqh in Central Asia from the IX to XX centuries, as well as the history of fatwas and fiqh treatises. The study analyzes fiqhical activity during the Mongol invasions, the Timurid and Shaybanid periods, the compilation of sources and fatwa collections, their methodology, and socio-political significance. Additionally, the dissemination of other madhhabs in the region and the practical application of Hanafi jurisprudence are considered. The article elucidates the scholarly landscape of the era through a comparative analysis of sources in Arabic, Persian, and Turkic languages.

Keywords: jurisprudence, periodic border, Mowarounnahr, jurisprudential sects, Mongol invasion, commentary, margin, fatawa, Middle East, Abduqadir al-Qurashi, “Al-Jawahirul-mudiya fi tabaqatul-hanafiya”.

ФИХ В ЭПОХУ МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ: ПРАКТИКА ФЕТВ И ИХ ИСТОРИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ

Данная статья изучает развитие ханафитского фикха в Центральной Азии в IX–XX веках, а также историю фетв и фикховых трактатов. В ходе исследования анализируются фикхическая деятельность в период монгольских нашествий, эпоху Тимуридов и Шайбанидов, систематизация источников и сборников фетв, их методология и социально-политическое значение. Кроме того, рассматривается распространение других мазхабов в регионе и практическое применение ханафитского права. Статья освещает научный ландшафт эпохи посредством сопоставления источников на арабском, персидском и тюркских языках.

Ключевые слова: юриспруденция, период, Моваруннахр, юридические школы, монгольское нашествие, комментарий, поля, фетвы, Ближний Восток, Абдукадир аль-Кураши, «Аль-Джавахирул-мудия фи табакатуль-ханафия».

Kirish. Hozirgi kunda Markaziy Osiyoda fiqh tarixi bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda IX–XII asrlar, ya‘ni Mo‘g‘ullar istilosiga qadar bo‘lgan davr ko‘proq o‘rganilmoqda. Keyingi davrlar – XIII–XX asrlar orasidagi fiqhiy rivojlanish, fatvo to‘plamlari, risolalar va shohliklar davri tadqiqotchilarning e‘tiboridan ko‘pincha chetda qolmoqda. Shu bilan birga, ushbu davrda mintaqaviy ahamiyatga ega bo‘lgan fiqhiy manbalar, xususan, fatvo to‘plamlari va risolalar keng tarqalgan. Mazkur manbalar asosan Hanafi fiqhiga tegishli bo‘lib, ularning ilmiy tahlili hali to‘liq amalga oshirilmagan.

Asosiy qism. Hozirda Markaziy Osiyoda fiqh tarixi bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning davriy chegarasi asosan IX–XII asrlar, aniqrog‘i, mo‘g‘ullar istilosi davrigacha tanlab olinayotgan bo‘lib, keyingi davr fiqh taraqqiyoti, mo‘g‘ullar (XIII–XIV), Amir Temur va temuriylar (XIV–XVI), shayboniylar (XVI–XVII) va xonliklar davri (XVIII–XX asr boshlari)dagi fiqhshunoslik hanuzgacha tadqiqotchilar e‘tiboridan bir oz chetda qolmoqda. Holbuki, bu davrlarda Markaziy Osiyo faqihlari tomonidan mintaqaviy ahamiyatga molik fiqhiy manbalar asosan, fatvo to‘plamlari[15], sharhlar[14], kichik hajmli usul va furu‘ masalalarini qamrab olgan risolalar ko‘plab yozilgan edi.

Movarounnahr fiqh maktablari, fiqhiy yo‘nalishlar va muayyan fiqhiy asarlar bo‘yicha yurtimizda bir qancha jiddiy

tadqiqotlar amalga oshirildi. Ularda asosan, Samarqand, Buxoro, Termiz, Nasaf fiqh maktablari haqida yetarli ma‘lumotlar mavjud. Lekin, Shosh [5:4], Jizzax, Xorazm va Farg‘ona vodiysiga oid tadqiqotlar nisbatan kamroq [3]. Mavjud tadqiqotlar esa, o‘lkadagi asosiy fiqhiy mazhab bo‘lgan hanafiylik tarixi va nazariyasiga qaratilgan.

Movarounnahrda shofeiylilik va boshqa fiqhiy mazhablarga oidlari nisbatan oz. Holbuki, hududda ahli sunna val jamoaning boshqa mazhablari xususan, Qaffol Shoshiy [6] (vaf.903-976), Abdurahmon ibn Ahmad Ijjiy (vaf.756/1355), Tojuddin Subkiy (vaf.771/1370) [7], Shamsiddin Kirmoniy (vaf.786/1384), Shahobiddin Abu Sa‘d ibn Imron Xivaqiy (XIII asr) orqali Toshkent va Xorazmda shofeiylilik mazhabi keng tarqalgan edi.

Bu masalada mo‘g‘illar bosqini davriga kelib ijtimoiy-siyosiy hayotga oid fatvolar chiqarish, arab tilida original ilmiy asarlar ta‘lif etish, diniy rivoyatlarning nufuzli silsilasi orqali yetkazilishning keskin kamayishi holati kuzatiladi.

Bundan tashqari, fiqhiy qo‘llanmalar kamayib, asosan avvalgilarini sharhlab, hoshiya yozish, nazmlar bitish bilan xarakterlanadi. Bu vaqtda “fatovo” to‘plamlari keng yoyildi. Mazhab imomlari shogirdi va ulardan keyingilar davrida fatovo asarlari ommalashdi. Ular orasida Abu Lays Samarqandiy (vaf.985)ning “Navozil” (Nozil bo‘lganlar),

Husomiddin Sadr ush-Shahid [2] va Abul Abbas Notifiyning "Voqe'ot" (Voqealar), Sadrul Kabir Hisomiddin (vaf.536/1141)ning "Fatavoi Kubro" [11] (Katta fatvolar), Imom Faxriddin Hasan O'zgandiy (vaf.592/1196)ning "Fatavo Qozixon"[12] (Qozixon fatvolari), Hofiziddin Muhammad Kardariy (vaf.828/1495)ning "Fatavoi Bazzoziya" [9] (Bazzoziy fatvolari) kabi fatvo kitoblari usul va navodir janridagi asarlardan keyingi darajadagi to'plamlar hisoblanadi. Chunki, usul va navodirlar mazhabboshilarning qavllari sirasiga kiradi. Fatvo va voqealarni o'zida jamlagan kitoblar esa, mujtahidlardan keyingi izdoshlari tomonidan yechilgan masalalarga oid. Davr manbalari tahlili arab tili bilan yonmayon forsiy va turkiy tillarida ijod boshlaganini ko'rsatdi.

Mo'g'ullar bosqining ilk davrida ilm-fan, jumladan, fiqh ilmi ravnaqi ancha oqsab qoldi. Natijada, xalq orasida turli zaif rivoyatlar, asossiz fatvolar, zaif hadislardan ko'p foydalanish va e'tiqodga oid shar'iy masalalarga jiddiy qaramaslik holatlari ko'paydi. Davr olimlari xalqni islomga, ibodatga targ'ib qilish maqsadida ushbu zaif rivoyatlar, manobqlar va shu kabi masalalarni bo'rttirib vasf etildi. Masalan, Mas'ud ibn Muhammad ibn Yusuf Samarqandiy "Salotu Mas'udiy" [4] asarida Abu Hanifaning manobqlari haqida mubolag'ali rivoyatlar haddan oshiq keltirilgan. Alouddin Buxoriy "Hayratul-fuqaho" asarida, o'sha davr xalqqa keng tarqalgan rivoyatlar, hadislar va ilmsiz kimsalar tomonidan chiqarilgan fatvolarni keltirilganini alohida ta'kidlab o'tish mumkin.

Yana bir e'tiborli jihat mo'g'ullar bosqinidan so'ng movarounnahrlik faqihlar Yaqin Sharq mamlakatlariga ko'chishi bilan bog'liq. Lekin shunday keskin vaziyatga qaramay aksariyat olimlar Movarounnahrda chiqmay o'z faoliyatini davom ettirgan. Chunki, mo'g'ul xonlarining islomni qabul qilishida o'lkada faoliyat yuritgan olimlarning hissasi katta bo'ldi.

Abduqodir al-Qurashiy (vaf.775/1375)ning "Al-Javohirul-mudiya fi tabaqatul-hanafiya" asarida qator yirik faqihlar haqidagi ma'lumotlar mavjud. Unga ko'ra, Movarounnahrda fiqh bilan birga tafsir ilmi rivojlangan. Muallif o'z davrda bu hududda 300 dan ortiq faqih faoliyat olib borgan, 20 dan ziyod fatvolar majmuasi, 350 dan ortiq fiqhiy asarlar yaratilgan va shularning barchasi hanafiy fiqhiga oid ekani aniqlangan [1:128-130].

Hanafiy olimlarining fatvo to'plamlarining ko'pi haligacha to'liq o'rganilmagan. Shunday fiqhiy asarlar borki, sohaning muayyan mavzusiga qaratilgan yoki bag'ishlangan, ulardan o'zbek kitobxonlarini bahramand etish zarurati mavjud. Shuningdek, o'z davrida bergan fatvolari olamni tutgan bir qancha faqihlar borki, asarlari bizgacha yetib kelmagan yoki hali topilmagan. Biroq ularning chiqargan fatvolari, hanafiylik fiqhi bo'yicha bildirgan qarashlari qator yozma fiqhiy asarlar tarkibida tarqoq holda uchraydi. Ularni ham bir joyga to'plab, ayri-ayri tadqiq va tahlil etish masalasi ham haligacha o'z yechimini to'laqonli topayotgani yo'q. Yana shunday hanafiy fiqhining mashhur namoyondalari borki, ularning asarlari bizgacha yetib kelmadi, balki ularning o'z davrida chiqargan fatvolari yoki fiqhiy qarashlari boshqa fiqhiy matnlar orqali yoqsa ularning sharh yo hoshiyalaridan ma'lum bo'ladi, xolos. Mana shunday faqatgina nomlarigina saqlanib qolgan mualliflar qatoriga, jumladan, Abu Sulaymon Juzjoniy (vaf.200/815), Abu Hafs Kabir Buxoriy (767-831), faqih Abdulaziz ibn Ahmad ibn Nasr Solih Shamsul aimma al-Halvoiy (vaf.452/1060), Hokim Shahid Marvaziy (vaf.334/945) kabi faqihlarni kiritish mumkin.

Demak, Movarounnahrda hanafiylik – Xuroson (Afg'oniston va shimoli-sharqiy Eron), Sharqiy Turkiston (Xitoy, Mo'g'uliston), Kavkaz, Qozon (Rossiya) taraflarga ham keng tarqaldi. Xususan, mo'g'ullar istilosi (XIII asrning birinchi choragi)dan so'ng bu o'lkadagi faqihlar har tarafga tarqaldilar, ko'proq usmoniylarga (1281-1924) tobe

shaharlarga – Rum diyoriga to'plandilar: istilo natijasida so'nib borayotgan fiqh o'sha shaharlarda yangidan qad rostladi. Usmoniyar saltanati hududlarida to'qson ikki fatvo kitobining yuzaga kelishi ham hanafiylikning naqadar rivoj topib borayotganini bildiradi [9:262]. O'z davrida usmoniyar davlatining shayxul islomlari faqat hanafiy ulamolardan tayinlandi. Aytish joiz-ki, bu imperiyaga hanafiylik aynan Movarounnahr orqali tarqalgan edi. Mo'g'ullar istilosidan keyin Movarounnahr va Xurosondagi faqihlar bir necha asr, ayniqsa, Temuriylar (1370-1500) davrida qizg'in faoliyat olib borgan. Temuriylar davlati huquqi hanafiylik mazhabiga asoslangan edi.

Mana shu e'tibordan hanafiylik bo'yicha yozilgan "Al-Muxtor" (Ixtiyor qilingan), "Al-Viqoya" (Saqlovchi), "Majmaul bahrayn" (Ikki dengiz qo'shiluvi), "Kanzud daqiq" (Daqiq ilmlar xazanasi), "Muxtasarul-Viqoya" va uning sharhlari, "Jome'ul fusulayn", "Me'rojud diroya", "Bayonul vusul fiy sharhil usul lil Bazdaviy", "Ash-Sharifiyya", "Al-Kofiya", "Qaydush sharoid va nazmul faroid", "Javohirul fiqh", "At-Talvih", "Fatvoyi Bazzoziya", "Jome' al-muzmarot", "Javohirul muziyya fi tabaqotil Hanafiya", "Fatavoi Tatarxoniy", "Durarul bihor" kabi va boshqa fiqhiy manbalar aynan mana shu davrlarda vujudga keldi.

Temuriylardan keyin Xurosonda shialar davlati, Movarounnahrda esa, shayboniyar (1500-1598) davlati hukmronlik qildi. Shayboniyar davrida turg'unlikni boshidan kechirgan hanafiylik fiqhida bir necha noyob fiqhiy kitoblar (mas. "Muxtasarul-Viqoya"ning qator sharhi), fatvolar (mas. "Fatavoysi Shayboniya", "Fatavoysi Aliyya", "Fatavoysi Samarqandiy", "Fatavoysi Naqshbandiya") kabi mazmundagi asarlar tasnif etildi.

Xullas, fatavo kitoblari fiqhiy masalalarni yoritishda alohida ahamiyat kasb etdi. Bu e'tibor shariat nuqtai nazaridan shubhasiz, o'rinli va dolzarb ekani manbalar orqali o'z isbotini topdi. Ularda ko'tarilgan mavzularning xaqqil va izchilligi jamlagan muallif uslubning o'ziga xos ta'minlab berdi. To'plangan fatavo kitoblarining asosli va dalillarning shubhasizligi, ularni asrlar davomida nafaqat Movarounnahr balki, butun islom olamida keng tarqalib, amaliyotda ulardan yetarlicha foydalanilishga sabab bo'ldi.

Xulosa. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Hanafi fiqhining Markaziy Osiyodagi taraqqiyoti faqat mahalliy yoki mintaqaviy doira bilan cheklanib qolmagan, balki butun islom huquqiy tafakkuri rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan muhim ilmiy-huquqiy hodisa bo'lgan. Ayniqsa, XIII–XX asrlar oralig'ida shakllangan fatvo to'plamlari, sharh va hoshiyalar, shuningdek, kichik hajmli fiqhiy risolalar o'z davrining dolzarb ijtimoiy, siyosiy va huquqiy masalalariga amaliy yechimlar bergani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu manbalar orqali Hanafi mazhabining moslashuvchanligi, hayotiyli va turli tarixiy sharoitlarga mos huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish qobiliyati yaqqol namoyon bo'ladi.

Mo'g'ullar istilosi va undan keyingi siyosiy beqarorlik fiqhiy ilmiy faoliyatga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, bu jarayon fiqh ilmining butunlay to'xtab qolishiga olib kelmadi. Aksincha, aynan ushbu davrda fatvo janrining keng tarqalishi, avvalgi fiqhiy merosni sharhlash, tartibga solish va amaliy ehtiyojlarga moslashtirish jarayoni jadallashdi. Fatvo to'plamlari mujtahidlar davridan keyingi huquqiy tafakkurning asosiy tayanch manbalariga aylanib, jamiyat hayotida yuzaga kelgan yangi masalalarga shariat asosida javob berish vazifasini bajardi.

Shuningdek, Movarounnahr faqihlarining Yaqin Sharq, Kichik Osiyo va boshqa hududlarga tarqalishi Hanafi fiqhining geografik jihatdan keng yoyilishiga zamin yaratdi. Ayniqsa, Usmoniyar davlati huquqiy tizimining hanafiylik asosida shakllanishida Movarounnahr ilmiy an'analarning o'rni beqiyos bo'ldi. Bu holat Markaziy Osiyoni islom huquqi

tarixida muhim ilmiy markazlardan biri sifatida baholashga to'liq asos beradi.

Biroq, mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, XIII–XX asrlarga oid ko'plab fatvo to'plamlari, risolalar va fiqhiy qarashlar hali ham yetarli darajada o'rganilmagan. Ayrim faqihlarning asarlari bizgacha yetib kelmagan bo'lsa-da, ularning fiqhiy qarashlari boshqa manbalarda tarqoq holda saqlanib qolgan. Ushbu merosni

aniqlash, tizimlashtirish va ilmiy muomalaga kiritish bugungi fiqhshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyoda Hanafi fiqhining keyingi davrlardagi rivojini chuqur va kompleks o'rganish nafaqat tarixiy adolatni tiklash, balki zamonaviy fiqhiy muammolarni hal etishda boy ilmiy-huquqiy tajribadan foydalanish imkonini beradi. Shu bois, fatvo adabiyotlari va fiqhiy risolalarni tadqiq etish istiqboldagi ilmiy izlanishlar uchun muhim yo'nalishlardan biri bo'lib qolaveradi.

ADABIYOTLAR

1. Abu Muhammad Abdulqodir ibn Abu al-Vafo Muhammad ibn Muhammad al-Misriy al-Qurashiy al-Hanafiy. Al-Javohir ul-muziya fi tabaqot al-hanafiya / Tahqiq muallifi: d-r Abdulfattoh Muhammad Hulv. J. I–V. – Qohira: Maktaba Hajr li-t-tib'ot va-n-nashr, 1413/1993. – J. II. – B. 128–130.
2. Bekmirzayev I. Husomiddin as-Sadr ash-shahid merosi yoxud sadrlar oilasi // Toshkent Islom universitetining ilmiy-tahliliy axboroti, 2/2005. – B. 15–19.
3. Qoriyev O. Farg'ona fiqh maktabi va Burhoniddin al-Marg'inoniy. – T.: Fan, 2009. – 256 b.
4. Mas'ud Samarqandiy. Saloti Mas'udiy. (Shaxsiy kutubxona. N.N.)
5. Mukhamedov, Nematullo (2020). Activities of Scholars of Islamic Law (Fuqaha) from Shash Oasis in Scientific Centers of the Region // The Light of Islam, 2020, №3, Article 1, P. 4–15.
6. Mukhamedov, Nematullo (2020). Medieval Scientists of the Oasis Shash and Their Contribution to Islamic Civilization // The American Journal of Social Science and Education Innovations, Vol. 2, Iss. 8, P. 137–143.
7. Mukhamedov, N. (2024). Misrlik tarixchi Tojuddin Subkiy "Tabaqot ash-shofi'iya al-kubra" asarida Shosh (Toshkent) olimlari faoliyatining yoritilishi // The Light of Islam, 2024, №3, Article 1, P. 4–11.
8. Mukhamedov, N., & Turambetov, N. (2024). Epigraphy and History of the Mausoleum of Abu Bakr Kaffal Shashi // Jurnal ISO, 4(1), 10.
9. Hayreddin Karaman. Islam Hukuk Tarihi. – Istanbul: Iz Yayıncılık, 2004. – S. 262.
10. O'zR FA SHI qo'lyozma: 2387, 2983, 5157 – katta hajmli arabiy nusxalar.
11. O'zR FA SHI qo'lyozma: 7857 – hij. 1223 yilda ko'chirilgan, 529 varaqli nusxa.
12. O'zR FA SHI qo'lyozma: 11588, 5959, 2801, 11256, 8759, 8515, 10946, 3212, 7339, 6813, 7456, 5643, 7929, 6184, 4674, 4774, 3372, 1870, 7134 – turli yillarga oid arabiy nusxalar.
13. Ushbu o'rinda ba'zi mashhur fatavo to'plamlari nomini berishga harakat qildik: "Fatovoyi Abul Lays"; "Uyunul masoilil muhimma"; "Nazmul fiqh"; "Fatavoi Sayrafiyya"; "Xizonatul fatovo"; "Fatovoyi Valvolijiyaa"; "Xulosatul fatovo"; "An-Nutaf fil fatovo"; "Fatovoyi Kubro" va "Fatovoyi sug'ro"; "Fatovoyi Sirojiya"; "Javohirul fatovo"; "Fatovoyi Attobiyya"; "Fatovoyi Qozixon"; "Fatovoyi Dinoriy"; "Fatovoyi Temirtoshiy"; "Zaxiratul fatovo"; "Tatimmatul fatovo"; "Fatovoyi Zahiriya"; "Yatimatud dahr fiy fatovo ahliil asr"; "Fatovoyi Tatorxoniy"; "Fatovoyi Bazzoziya"; "Ftovoyi Shayboniy".
14. "Sharh al-Viqoya ma'a hoshiyatihi Umdat ar-rioya", "Sharh al-Viqoya", "Sharh al-Asom ad-Din", "Sharh al-amoliy", "Sharh ala matolib al-musolliy lil Kaydoniy to Ko'histoniy", "Jome' al-maboni sharhi Fihi Kaydoniy", "Sharhi shurut as-solat", "Sharhi Maoniy al-Osori Tahoviy", "Sharhi Tuhfat al-ahror" kabi va boshqa sharhlarni misol tariqasida keltirdik.